

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Ravshanova Dilnura Xusanovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali, Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti, Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
dilnuraravshanova292@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda interaktiv o‘yinli texnologiyalardan foydalanish metodikasi keng yoritilgan. Bugungi kunda ta‘lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat bilim olishlari, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, o‘z fikrini asoslab bera olish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada interaktiv metodlar va o‘yinli texnologiyalarning o‘quv jarayonidagi o‘rni va ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida boshlang‘ich ta‘limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar, jumladan, STEAM, muammoli ta‘lim, loyihaviy faoliyat va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, didaktik o‘yinlar, mantiqiy mashqlar va interaktiv topshiriqlar orqali o‘quvchilarning tafakkur jarayonlarini faollashtirish yo‘llari yoritilgan. Maqolada olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv o‘yinli texnologiyalarni dars jarayoniga tizimli ravishda joriy etish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasini oshiradi, ularning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda mustaqil ishlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, mantiqiy fikrlash, interaktiv metodlar, o‘yinli texnologiyalar, STEAM yondashuvi, muammoli ta‘lim, loyihaviy ta‘lim, raqamli texnologiyalar, didaktik o‘yinlar, ta‘lim samaradorligi

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается методика использования интерактивных игровых технологий в развитии логического мышления учащихся начальных классов. В условиях современного образования особое значение приобретает формирование у учащихся не только знаний, но и навыков самостоятельного мышления, анализа, аргументации своей точки зрения и принятия решений в проблемных ситуациях. В этой связи в статье научно обоснована роль и значение интерактивных методов и игровых технологий в образовательном процессе.

В ходе исследования рассмотрены современные подходы к развитию логического мышления в начальном образовании, включая STEAM-подход, проблемное обучение, проектную деятельность и использование цифровых технологий. Также освещены способы активизации мыслительной деятельности учащихся посредством дидактических игр, логических упражнений и интерактивных заданий. Результаты исследования показывают, что системное применение интерактивных игровых технологий в учебном процессе способствует повышению уровня логического мышления учащихся, усиливает

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

их интерес к обучению, а также развивает навыки самостоятельной работы и творческого подхода.

Ключевые слова: начальное образование, логическое мышление, интерактивные методы, игровые технологии, STEAM-подход, проблемное обучение, проектное обучение, цифровые технологии, дидактические игры, эффективность обучения

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the methodology for using interactive game-based technologies to develop logical thinking skills in primary school students. In modern education, it is essential not only to provide knowledge but also to develop students' independent thinking, analytical abilities, argumentation skills, and decision-making in problem situations. In this context, the role and importance of interactive methods and game-based technologies in the educational process are scientifically substantiated.

The study examines modern approaches to developing logical thinking in primary education, including the STEAM approach, problem-based learning, project-based learning, and the use of digital technologies. It also highlights ways to enhance students' cognitive activity through didactic games, logical exercises, and interactive tasks. The results of the study indicate that the systematic use of interactive game-based technologies in the learning process improves students' logical thinking abilities, increases their interest in learning, and develops independent and creative skills.

Keywords: primary education, logical thinking, interactive methods, game-based technologies, STEAM approach, problem-based learning, project-based learning, digital technologies, didactic games, learning effectiveness

Kirish: Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalar qo'ymoqda. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning faqat bilim olishi emas, balki mustaqil fikrlash, erkin nutqiy ifoda va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ona tili fani mazkur jarayonda yetakchi o'rin egallab, bolalarning tafakkuri, dunyoqarashi va nutq madaniyatini shakllantirishda tayanch fan hisoblanadi. An'anaviy ta'lim metodlari ko'pincha o'quvchini passiv tinglovchiga aylantirib qo'yadi. Shu sababli interaktiv metodlarni ta'lim jarayoniga joriy etish bugungi pedagogikaning muhim vazifasidir. Interaktiv metodlar o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, uning fikrlash faoliyatini faollashtiradi va qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi.

Mantiqiy fikrlash –bu faqat matematika fani bilan cheklanib qolmaydigan, balki barcha fanlarni o'zlashtirishda, hayotiy masalalarni hal etishda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan umumiy aqliy faoliyat turi hisoblanadi. Shu boisdan, boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning tafakkur doirasini kengaytirish, ularni kuzatish, solishtirish, tasniflash, asoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy operatsiyalarga yo'naltirish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab etadi. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi natijasida nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, ularni muammoli vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang'ich ta'limda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar, mashqlar, savol-javoblar, o'yinli metodlar va

interfaol yondashuvlar katta ahamiyatga ega. Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda ta'lim tizimi oldiga yangi talablar qo'yilmoqda. Zamonaviy maktab o'quvchisidan faqat tayyor bilimlarni egallash emas, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, o'z fikrini asoslab bera olish va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kabi ko'nikmalar talab etiladi. Shu sababli, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biriga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847- son, 2022-yil 6-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026- yillarga mo'ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, 2018- yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan kompleks islohotlarda faol ishtirok etishini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarni tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son Qarorlari va ushbu sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili: Boshlang'ich ta'limda interaktiv metodlardan foydalanish masalasi so'nggi yillarda pedagogika fanida keng o'rganilmoqda. O'zbek va xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning faolligini oshirish va ta'lim samaradorligini ta'minlashda interaktiv yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Masalan, Abdullayeva (2018) o'z tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilarida guruh ishlari va o'yin metodlaridan foydalanish darslarda qiziqishni oshirishi hamda mustaqil fikrlashni rivojlantirishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Karimov(2020) raqamli vositalar va multimedia materiallarini interaktiv darslarda qo'llash ta'lim jarayonini yanada samarali qilishini ko'rsatgan. Ba'zi tadqiqotchilar, xususan Tursunova (2019), o'quvchilarning kreativ fikrlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muammoli vazifalar va loyiha asosidagi metodlar samarali ekanligini qayd etadi.

Tadqiqot metodologiya: Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda interaktiv o'yinli texnologiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Nazariy qismda pedagogik va metodik adabiyotlar tahlil qilinib, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy yondashuvlari o'rganildi. Amaliy qismda esa kuzatish, suhbat, test va tajriba-sinov metodlari qo'llanildi. Dars jarayonida mantiqiy o'yinlar, muammoli topshiriqlar, guruhli ishlar hamda raqamli platformalar asosida interaktiv metodlar joriy etildi. Bu usullar orqali o'quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlantirildi. Tadqiqot natijalari interaktiv o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va darsga bo'lgan qiziqishini oshirishda samarali ekanligini ko'rsatdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish turli innovatsion yondashuvlar orqali amalga oshiriladi, bular:

1. STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Math). STEAM yondashuvi orqali o'quvchilar muammolarni fanlararo asosda hal qilishga o'rganadilar. Masalan, matematika va san'at darslarini integratsiyalash orqali geometriyani amaliy mashg'ulotlar bilan o'rgatish

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Bu jarayonda bolalar mustaqil ravishda izlanadi, tajriba o'tkazadi va xulosa chiqaradi.

2. Muammoli ta'lim. Bu uslubda dars muammo asosida quriladi. O'quvchilarga kundalik hayotga oid muammolar (masalan: "Sinfimizda suvni tejash uchun qanday tadbirlar o'tkazamiz?") beriladi va ular guruhlarda muammoni hal etishga harakat qilishadi. Bu esa ularning izchil fikrlash, sabab-oqibat munosabatini tushunish va taklif bildirish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

3. Loyihaviy ta'lim. Loyihaviy ishlar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini amalda qo'llashga o'rganadi. Masalan, "Men yashaydigan mahalla" loyihasini ishlab chiqishda o'quvchi rasm chizadi, yozma matn tayyorlaydi, topilgan ma'lumotlarni tahlil qiladi. Bu esa tafakkur jarayonlarini faollashtiradi.

4. Raqamli texnologiyalar. Mental UP (mantiqiy o'yinlar orqali tafakkurni rivojlantirish), Kahoot (o'yinli testlar orqali bilimlarni baholash va mustahkamlash), Quizizz (savol-javoblar orqali tanlov asosida fikrlashga undash), LogicLike (mantiqiy masalalar, boshqotirmalar, testlar) kabi interaktiv platformalar o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rag'batlantiradi. Bu platformalar o'yinlar orqali bolalarni mantiqiy fikrlashga undaydi va raqobat orqali qiziq ishni oshiradi.

5. O'yinlar. O'yinlar o'quvchilarning e'tiborini jamlash, fikrni tez yuritish, tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan: shaxmat strategic fikrlashni o'rgatadi, tangram shakllarni joylashtirish orqali fazoviy tafakkurni rivojlantiradi, sudokuva boshqotirmalar raqamlar va ketma-ketliklar orqali mantiqiy fikrlashni faollashtiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Ijodiy faoliyat orqali o'quvchilarning tafakkuri, tasavvuri va mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Ta'lim jarayonida ijodiy topshiriqlar, didaktik o'yinlar, muammoli vaziyatlar va interfaol metodlardan foydalanish yuqori samara beradi. Shuningdek, o'qituvchi tomonidan yaratilgan qulay psixologik muhit va individual yondashuv o'quvchilarning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etishga xizmat qiladi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim tizimida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni izchil tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boltayevna, K. M. (2025). ONA TILI DARSLARIDA INTERAKTIV METODLAR ORQALI O'QUVCHILAR QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH. *Новосту образования: исследование в XXI веке*, 4(40), 449-451.
2. Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari. (2026). *Innovatsion Talabalar Axborotnomasi*, 3(2), 12-15.
3. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. (2025). *Global Science Review*, 3(2), 366-374.
4. Berdiyev, M. M. (2025). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (TEXNOLOGIYA TALIMI VA UNI O'QITISH METODIKASI FANI MISOLIDA). *Inter education & global study*, 3(6), 248-255.

5. 2025. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QUVCHILARIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH ORQALI TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *Ustozlar uchun*. 85, 6 (Dec. 2025), 106–112.
6. Baxitovna, M. D. (2025). BOSHLANG ‘ICH SINIF O ‘QUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUVLAR. *Shokh Articles Library*, 1(2).